

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**XAMRAYEV SIROJ ABRUYEVICH**

**MULKDORLIK VA TADBIRKORLIK TAMOYILLARI – YANGI  
O‘ZBEKISTONNI TARAQQIY ETTIRISH OMILI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (DSc) по  
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (DSc) on  
philosophical sciences**

**Xamrayev Siroj Abruyevich**

Mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillari – Yangi O‘zbekistonni  
taraqqiy ettirish omili .....5

**Хамраев Сирож Абруевич**

Принципы собственности и предпринимательства – фактор развития  
Нового Узбекистана.....33

**Khamrayev Siroj Abruyevich**

Principles of property and entrepreneurship - a factor in the development of New  
Uzbekistan.....67

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of works published.....73

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.F.08.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**XAMRAYEV SIROJ ABRUYEVICH**

**MULKDORLIK VA TADBIRKORLIK TAMOYILLARI – YANGI  
O‘ZBEKISTONNI TARAQQIY ETTIRISH OMILI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/Fal254 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashining veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Abilov O'rol Muradovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Salomova Xakima Yusupovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Nazarov Qiyom Normerzayevich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Kuvvatov Narkazak Burxanovich**  
falsafa fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.08.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "1" April soat 9<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27; e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (845- raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65)221-29-14; faks: (0365) 221-29-14.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "13" Mart kuni tarqatildi.

(2026-yil "13" Mart dagi 5 raqamli reyestr bayonnomasi.)



**Namozov B.B.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipov A.Z.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Safarova N.O.**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda XXI asrda ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida mulk munosabatlari va tadbirkorlik faoliyati insonning ijtimoiy ongi, iqtisodiy faolligi hamda ma'naviy yetukligini belgilaydigan asosiy omillardan biriga aylangani raqobatbardosh iqtisodiy muhitni shakllantirish, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash va kichik biznesni kengaytirishni strategik vazifalar qatoriga kiritmoqda. Global iqtisodiyotda mulkdorlik faqat moliyaviy ne'mat emas, balki insonning shaxsiy mas'uliyati, erkinlik madaniyati va ijtimoiy faolligini anglatib, tadbirkorlik tamoyillarini insonparvar, barqaror va axloqiy asosda qayta ko'rib chiqish tendensiyasini kuchaytirmoqda. Shu sabab mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatining insonning erkinlik, mas'uliyat va mehnat madaniyati bilan uzviy bog'liq ijtimoiy-falsafiy jihatlarini, jamiyatda yaratuvchanlik ruhi, shaxs tafakkurining madaniy darajasini ifodalash xususiyatlarini, moddiy farovonlik bilan ma'naviy o'sishni birlashtirish tamoyillarini asoslab berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida mulkdorlik va tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyatini ta'minlash, monopolistik tendensiyalar yuzaga kelish holatlariga barham berish, adolatsiz raqobatni oldini olish va korrupsiya holatlarini bartaraf etish kabi masalalarga oid fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mulk va tadbirkorlik masalasi iqtisod falsafasi, ijtimoiy psixologiya, madaniy antropologiya va siyosiy sotsiologiya kontekstlarida iqtisodiy rag'bat va axloqiy mas'uliyat uyg'unligi, innovatsiya orqali jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq funksional masala sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, mulk va tadbirkorlikni inson qadri, erkin mehnat va ma'naviy taraqqiyot bilan bog'lab tahlil qilish, uning insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida shakllangan umuminsoniy tamoyillari va institutsional mexanizmlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish, mulkdorlar va tadbirkorlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda umuminsoniy qadriyatlar talablariga qat'iy amal qilish bilan bog'liq islohotlar olib borilmoqda. "... kambag'allikni qisqartirish borasida oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishish uchun hali ko'p izlanishimiz talab etiladi. Bunda "inson-jamiyat-davlat" tamoyili asosida boshlagan keng ko'lamli ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish bilan bir qatorda, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ham boshlagan ishlarimizni qat'iy davom ettiramiz. Birinchidan, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishning "drayveri" bo'lgan xususiy sektor va tadbirkorlik uchun eng qulay sharoitlarni yaratib berish, ularni izchil qo'llab-quvvatlash masalasi doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi"<sup>1</sup>. Bu jihatdan, tadbirkorlik sohasi vakillariga xos ma'naviy jarayonlar dinamikasini o'rganish, Yangi O'zbekiston mulkdorlari va tadbirkorlariga xos xususiyatlarni, mulkdorlik va tadbirkorlik tendensiyasini mustahkamlash bilan bog'liq falsafiy omillarning ahamiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. -Тошкент: "O'zbekiston", 2024. – Б.212-213

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2018-yil 27-iyundagi PF-5466-son ““Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 23-sentyabrdagi PF-143-son “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida” farmonlari, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 23-yanvardagi PQ-39-son “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 23-sentyabrdagi PQ-330-son ““Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2025-yil 14-fevraldagi PQ-60-son “Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvardagi 55-son “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” qarori hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

### **Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.**

Jahonda so‘nggi yillarda mulkdorlik va tadbirkorlik tendensiyasining o‘sib borishi, ish bilan bandlik hamda jamiyatning barqaror taraqqiyotini, iqtisodiyotning harakatchanligi va dinamikligini ta’minlash, mulkdorlik va tadbirkorlikning o‘ziga xos o‘rni bilan bog‘liq masalalar keng tadqiq etilmoqda. Bu jihatdan, V.Vilson xalqaro tadqiqot markazi (AQSh), Gumbold universiteti (Germaniya), Sarbonna universiteti (Fransiya), Institute of Academy for study of the modern international relations Europe and Asia (Xitoy), Javoharlal Neru universiteti (Hindiston), Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasining Iqtisodiyot hamda Sotsiologiya institutlari (Rossiya), Farobiy nomidagi Qozoq Milliy universiteti (Qozog‘iston), O‘zbekiston Milliy universiteti, Buxoro davlat universiteti (O‘zbekiston) kabi ta’lim va tadqiqot markazlarida mulkdorlar, tadbirkorlar va kichik biznes sohasi bilan bog‘liq omillar,

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://www.brookings.edu/>; <https://www.bu.edu/>; <https://cgt.columbia.edu/>; <https://carnegieendowment.org/>; <https://www.wilsoncenter.org/>; <https://jmp.princeton.edu/>; <https://www.mcgill.ca/>; <https://www.utoronto.ca/>; <https://www.nottingham.ac.uk/cspi/>; <https://www.sorbonne-universite.fr/>; <https://cerhiip.univ-amu.fr/>; <https://www.mpifg.de/>; <https://www.freiheit.org/>; <https://www.kas.de/de/>; <https://merics.org/en/>; <https://www.internationalaffairs.org.au/>; [books.google.com/](https://books.google.com/); [www.iaaw.hu-berlin/](http://www.iaaw.hu-berlin/); [www.harvard.edu/](http://www.harvard.edu/); [www.yale.edu/](http://www.yale.edu/); [www.columbia.edu/](http://www.columbia.edu/); [iea-ras.ru/](http://iea-ras.ru/); [de;www.ehess.fr/fr/](http://de;www.ehess.fr/fr/); [knigi.link/etnologiya-etnografiya/](http://knigi.link/etnologiya-etnografiya/); [www.dissercat.com/](http://www.dissercat.com/); <https://jacses.org/en/>; <https://ijtimoiyfikr.uz/> oz/markaz; <https://nuu.uz/>; <https://dba.uz/uz/> va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan

va tamoyillarni tadqiq etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Dunyoning yetakchi xorijiy ta'lim markazlari hamda ilmiy tadqiqot markazlarida mulkdorlik, xususiy tadbirkorlik va bozor erkinliklari masalasi, avvalo, iqtisodiy taraqqiyot va institutlar sifati bilan bog'liq holda talqin qilingan (Frankfurt School of Finance & Management). Boshqa bir yondashuvga ko'ra, mulk huquqlarining aniqligi, qonun ustuvorligi va shaffof muhit tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirishi, bu jarayonlar iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil ekani asoslangan (University of New Hampshire, AQSh). Berlin School of Economics and Law tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa mulkdorlikni faqat huquqiy-institutsional kafolat emas, balki iqtisodiy subyektlarning ishonchi va tashabbuskorligini shakllantiruvchi omil sifatida ham muhim deb topilgan. Mulk huquqlarini legallashtirish va "o'lik kapital"ni iqtisodiy aylanishga kiritish g'oyasi markaziy o'ringa qo'yilib, kambag'al qatlamlarning resurslardan samarali foydalanishi, kredit va bozor infratuzilmalariga kirish imkoniyati bilan bog'langan (McGill university), Buyuk Britaniyaning University of Glasgow tadqiqotlariga ko'ra "Development as Freedom" konsepsiyasi, tadbirkorlik va iqtisodiy erkinlik inson erkinliklari tizimining tarkibiy qismi sifatida asoslangan. Ayni vaqtda Cambridge va Manchester universitetlari hamda Massachusetts texnologiya instituti tomonidan mulkdorlik va tadbirkorlikni faqat kapital to'plash vositasi emas, balki shaxsning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi, jamiyatda faol subyekt sifatida namoyon bo'lishi, axloqiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi bilan bog'langan. Kyoto universiteti tadqiqotlarida Yaponiyaning qadriyat tizimi global miqyosda, ayniqsa, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Janubiy Osiyo, Markaziy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari ijtimoiy-ma'naviy muhitiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani ilmiy asosda isbotlangan. Seul Milliy universitetida esa kichik бизнес va хусусий tadbirkorlikning ijtimoiy barqarorlik, o'rta sinfni shakllantirish, mahalliy hamjamiyatlar hayotini faollashtirishdagi o'rni haqidagi tadqiqotlar ham mulk va tadbirkorlikni ijtimoiy-institutsional tizimlar bilan bog'liq ko'p qirrali hodisa sifatida tasvirlaydi. Rossiyaning Moskva davlat universiteti, Qozog'istonda Al-Farobiy nomidagi Milliy universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda esa mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillarini iqtisodiy o'sish, institutsional islohotlar, erkin bozor munosabatlari konsepsiyasi bilan bog'liq holda o'rganilgan (O'zbekiston Milliy universiteti, Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston).

Dunyoda mulkdorlik va tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish tamoyillarini chuqur o'rganish bo'yicha quyidagi yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi: raqobat, innovatsiya va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash; "kichik va o'rta biznes", xususiy tadbirkorlik uchun sharoitlar, mulk huquqlari va institutsional muhitni yaxshilash; mulk huquqlari va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi davlat siyosati yuritish va iqtisodiy faollikni oshirish; innovatsion tadbirkorlik muhitini yaratish, tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish; mulk huquqlari va ijtimoiy ishonch darajasining iqtisodiy barqarorlikni belgilashdagi ahamiyati; tadbirkorlikda barqarorlik va mulkdorlikning jamoaviy modeli, "korporativ vijdon" konsepsiyasi kabi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mulkdorlik va tadbirkorlik sohasi bilan bog'liq masala va muammolar, ularning yechimlariga doir vazifalar jahon olimlar va mutaxassislarining doimiy e'tiborida bo'lgan. Xususan, G'arbda antik davr mutafakkirlari, Platonning "Davlat", Aristotelning "Siyosat" kabi asarlarida "egalik", "foydalanish", "mahrum etish" tushunchalarini tahlil qilish mulk mohiyatini ochib berishga yordam beradi. Mulkdorlar qatlami haqida T.Gobbs, J.Lokk, J.J.Russo, T.Jefferson kabi ma'rifatparvarlar fikr yuritgan bo'lsalar, I.Kant asarlarida esa mulkchilik borasida falsafiy qarashlar ilgari surilgan<sup>3</sup>.

Sharqda ham bu masalaga allomalarimizning o'ziga xos qarashlari shakllangan. Ayniqsa, Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya", Alisher Navoiyning "Vaqfiya", Ahmad Donishning "Novodir ul-voqiya" kabi asarlarida mulkchilikning mohiyati, u bilan bog'liq huquqiy, ijtimoiy, siyosiy jihatlariga alohida ahamiyat qaratilgan<sup>4</sup>.

Zamonaviy shart-sharoitlarda mulkdorlik va tadbirkorlik tendensiyasining o'sib borishi, ish bilan band aholining tadbirkorlik va kichik biznes sohasida faoliyati samaradorligini oshirishdagi roli va ahamiyati masalalari G.Aleksandr, D.Beyli, Y.Brigxmen, J.Lorens Gitman, Ye.Domar, J.Douns, E.Jons, D.Maykl Jonk, J.Rozenberg, A.Pol Samuelson, S.Xantington, Z.Bauman, X.Abels kabi olimlar asarlarida tadqiq etilgan<sup>5</sup>.

Osiyo va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlari mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillarining milliy qadriyatlar va ma'naviy omillar bilan o'zaro ta'sirchanligini mustahkamlash muammosi yuzasidan tadqiqot olib borganlar. Jumladan, O'zjan Ko'knel, Yusuf Yurdigul, V.Malaxov, Y.Ashkerov, A.F.Dashdamirov ilmiy izlanishlarida mazkur muammo o'z yechimini topgan<sup>6</sup>.

Bizning mamlakatimizda ham bunday tadqiqotlar olib borilmoqda va muayyan natijalarga erishilmoqda. Bu borada ayniqsa, mazkur murakkab mavzu

---

<sup>3</sup> Платон. Государство. - М.: Мысль, 1994. -654 с.; Аристотель. Политика. - М.: Мысль, 1983. -644 с.; Гоббс Т. Левиафан. - М.: Мысль, 2001. 478 с.; Локк Дж. Два трактата о правлении. - М.: Канон+, 2003. -480 с.; Rousseau, Jean-Jacques. The Social Contract. - London: Penguin Classics, 2003. -240 p.; Jefferson, Thomas. Selected Writings. Library of America, 1984. -1600 p.; Кант И. Метафизика нравов. - М.: Мысль, 1994. -400 с.

<sup>4</sup> Марғинович, Бурхониддин. Ҳидоя. - Тошкент: "Фан", 1970. -800 б.; Навоий, Алишер. Вақфия. - Тошкент: "Шарқ", 1980. -250 б.; Аҳмад Дониш. Наводир ул-воқия. - Тошкент: "Фан", 1960. -350 б.

<sup>5</sup> Alexander G. Economic Theories and Applications. New York: Academic Press, 2005. -420 p. Bailey D. Regional Economic Development. London: Routledge, 2010. -380 p.; Bridgman, Y. Management Principles. Boston: McGraw-Hill, 2007. - 450 p. Gitman L. Principles of Managerial Finance. 14th ed. Boston: Pearson, 2015 -900 p.; Gitman L. Fundamentals of Investing. 13th ed. Boston: Pearson, 2014. -720 p.; Domar E. The Growth of Capital. New York: Oxford University Press, 1946. - 150 p.; Domar E. Expansion and Employment. Cambridge: Harvard University Press, 1947 -200 p.; Downs, J. Inside Bureaucracy. Boston: Little, Brown and Company, 1967. -300 p.; Jones E. Financial Markets and Models. London: Palgrave Macmillan, 2009. -500 p.; John D. M. Management and Marketing Strategies. New York: Harper & Row, 2002. -350 p.; Rosenber J. Technological Change and Economic Growth. Cambridge: Cambridge University Press, 1972. -250 p.; Samuelson P. Economics. 19 th ed. New York: McGraw-Hill, 2010. - 700 p.; Huntington S. Political Order in Changing Societies. New Haven: Yale University Press, 1968. -500 p.; Huntington S. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. New York: Simon & Schuster, 1996. -370 p.; Bauman Z. Liquid Modernity. Cambridge: Polity Press, 2000. -240 p.; Bauman Z. Modernity and Ambivalence. Cambridge: Polity Press, 1991. -300 p.; Abels H. Economic Systems and Management. Berlin: Springer, 2008. -420 p.;

<sup>6</sup> Ko'knel O'. Modern Management Practices in Central Asia. Tashkent: "Fan va Texnologiya", 2012. -280 p.; Yurdigul Y. Organizational Behavior and Human Resource Management. Istanbul: Beta Yayinlari, 2005. -360 p.; Malakhov V. Corporate Finance and Investment Analysis. Moscow: Nauka, 2008. -400 p.; Ashkerov Y. Finance and Banking in Transition Economies. Tashkent: "Sharq", 2010. -350 p.; Dashdamirov A.F. Investment Projects and Economic Development. -Tashkent: "Fan", 2015. -320 p.

bilan bog‘liq jarayonlarning ustuvor yo‘nalishlari va asosiy tamoyillarini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlangan izlanishlar va tadqiqotlarga F.Abduraxmonov, O‘.Abilov, B.To‘ychiyev, I.Soifnazarov, Q.Nazarov, S.Choriyev kabi olimlar asarlari misol bo‘ladi. Respublikamizda mulkdorlik va tadbirkorlik tendensiyasining o‘sib borishi mexanizmini takomillashtirish masalalari Q.Abdurahmonov, H.Abulqosimov, N.Karimov, M.Sharifxo‘jayev, S.G‘ulomov ilmiy ishlarida alohida o‘rin tutadi. M.Rustamboyev<sup>7</sup>, A.Jalilov, U.Muhammadiyev, Q.Jo‘rayevlar<sup>8</sup>, I.Ubaydullayev<sup>9</sup> O.Norboyev<sup>10</sup> ilmiy izlanishlarida mulkdorlar qatlami haqida ba‘zi masalalarni yoritishga harakat qilishgan. A.Xuseynova, Sh.Negmatova, M.Xajiyeva kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida mulkdorlik va tadbirkorlik tendensiyasini yanada yuksaltirish, ularning milliy qadriyatlarga sodiqligiga asoslangan zamonaviy tafakkurni, innovatsion va kreativ ish yuritish qobiliyatini o‘stirish hamda ijtimoiy ta‘minotni jamiyat ma‘naviy hayotining ajralmas qismi sifatida davr talablari asosida tadqiq qilingan<sup>11</sup>.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan olimlarning ilmiy izlanishlarida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, mulkdorlik va tadbirkorlik tendensiyasining imkoniyatlari oshirish masalalari chuqur o‘rganilgan. Biroq “mulkdorlik va tadbirkorlik” tushunchalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tamoyillarni mustahkamlash jarayonini ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tadqiq qilish, bu sohadagi izlanishlarga demokratik islohotlar mazmuni hamda jamiyatdagi yangilanishlar mohiyatidan kelib chiqqan holda yondashish zarurati dolzarb ilmiy-nazariy masalalardan biriga aylangani shubhasiz. Shu bois mazkur dissertatsiyada mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillarini mustahkamlash, ushbu mavzu bilan bog‘liq falsafiy-ijtimoiy masalalarga maxsus tadqiqot obyekti sifatida

---

<sup>7</sup> Рустамбоев М. Мулкдор // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-жилд. - Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2003. - 120 б.

<sup>8</sup> Жалилов А., Мухаммадиев У., Жўраев Қ. ва бошқ. Фуқаролик жамияти асослари: ўқув қўлланма/ - Тошкент, 2015. - 264 б.

<sup>9</sup> Убайдуллаев И. “Ўзбекистонда мулкдорлар геоекисодий тафаккурини шакллантириш ва ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий жиҳатлари”.Фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. - Тошкент: 2018. - 154 б.

<sup>10</sup> Норбоев О.А. “Миллий иктисодиётда мулкчилик муносабатларини амалга ошириш механизмини такомиллаштириш” Фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. - Тошкент: 2020. - 154 б.

<sup>11</sup> Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. -Т.: Университет, 1998. - Б.148; Алиев Б. Янги Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(21), 2024. -P.8-16.; Nazarov Q., To‘xtayev X. *Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi*. - Т.: Universitet, 2022. - 276 б; Саифназаров И. Янги Ўзбекистон: Инсон кадри улуғланган юрт. - Т.: “Илм-Зиё-Заковат” МЧЖ, 2023. - Б.209; Хусейнова А. Шарқ мутафаккирлари дунёкарашида умуминсоний кадриятлар. Монография. - Т.: Paradigma, 2017. - Б.136; Sharipov A.Z. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi -yurtimizda inson qadrini oshirish hamda ma‘naviy salohiyatni yuksaltirishdagi islohotlar asosi sifatida. - FarDU. Ilmiy xabarlar. 2025-2. -B. 60-64; Choriyev A., Choriyev S.A., *Renessans davri. Yevropa falsafasi. Tafakkur qanoti*. 2015. - В 112; Негматова Ш., Орипов Х. В. Влияние глобальных кризисов на духовность человека //Достижения науки и образования. 2018. №. 10 (32).; Khajieva M.S. (2019). Philosophical essence of humanistic ideas of our thinkers. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, 4(2), -P. 253-268; Тешаев Н.Н. Фуқаролик жамиятини ривожлантиришнинг маънавий омиллари ва мафкуравий тамойиллари. Монография. - Т.: 2023. -Б. 160; Bakhromovich S.I. (2018). Social and philisophical performance of making youth’s intellectual culture. *European science review*, (7-8), -P. 296-298; Холмирзаев Н. (2018). Баркамол инсонни шакллантиришнинг асосий омиллари. *Scientific journal of the Fergana State University*, (5), - В. 19.;

yondashilgan va iqtisodiy tizimni o'zgartirish jarayonida mulkdorlik va tadbirkorlikning institutsional muammolari, uni rivojlantirishning mexanizmlariga alohida diqqat qaratilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Barqaror demokratik huquqiy jamiyat qurishda axloqiy-ma'naviy tarbiya va falsafiy, huquqiy ongning dialektikasi" doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistonda mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillarining jamiyat taraqqiyotini ta'minlashdagi ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

mulkdorlik va tadbirkorlik tushunchalarining falsafiy ildizlari, tarixiy-evolyutsion shakllanish bosqichlari va ijtimoiy ongning o'rnini tahlil etish;

rivojlanishning yangi bosqichida mulkdorlik va tadbirkorlik sohasidagi islohotlarning konseptual tamoyillarini tadqiq qilish;

Yangi O'zbekistonda iqtisodiy tizim transformatsiyasi sharoitida mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatini normativ-institutsional himoya qilish mexanizmlarini, siyosiy-huquqiy asoslarini mustahkamlash zaruratini asoslash;

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'sirida mulkdorlik va tadbirkorlik sohasida ro'y berayotgan o'ziga xos xususiyatlar, dinamik va innovatsion o'zgarishlar dialektikasini ochib berish;

hozirgi davrda mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyati samarasini oshirish va ushbu jarayonni yanada optimallashtirish mexanizmlarini asoslash;

Yangi O'zbekiston sharoitida mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillarining ma'naviy omillarini takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashtirish;

kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning samarali vositalari, mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillarini mustahkamlashning optimal imkoniyatlarini asoslab berish;

amaldagi mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatini yanada samarali tashkil qilish va takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Yangi O'zbekistonda shakllangan mulkdorlik va tadbirkorlik tizimi, uning faoliyatini belgilovchi obyektiv omillar va shart-sharoitlar tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Yangi O'zbekistonda mulkdorlik tendensiyasini mustahkamlash jarayoni, uning o'ziga xos tamoyillari, usullari va vositalari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va bu sohani takomillashtirish imkoniyatlarini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, sotsiodinamik kuzatuv kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatining erkin tanlov va ijodkorlik aloqadorligi, insonni ma'naviy qadriyatlar yaratuvchi, jamiyat farovonligi uchun mas'ul ijtimoiy mavjudot sifatida ifodalovchi ijtimoiy-falsafiy mazmuni,

individual (shaxsning mustaqil tashabbusi va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish), ijtimoiy (hamkorlik va kooperatsiya orqali insonparvarlikni ta'minlash), innovatsion (yangi g'oya va texnologiyalar asosida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni modernizatsiya qilish) kabi namoyon bo'lish xususiyatlari hamda yaratuvchanlik, barqarorlik, insonparvarlik kabi falsafiy mohiyati ochib berilgan;

mulkdorlik va tadbirkorlikning halollik va adolat, ijodkorlik va tashabbuskorlik, mas'uliyat va hamjihatlik kabi umuminsoniy tamoyillari amaliyoti asosida Yangi O'zbekiston mulkdorlari va tadbirkorlariga vatanparvarlik va ijtimoiy burchni chuqur his etish, raqobatbardosh ishlab chiqarish va ishchi o'rni yaratish, halollik va sadoqat kabi xususiyatlarni mustahkamlash dinamikasi aniqlashtirilgan;

“O'zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirishda mulkdorlik va tadbirkorlikning innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, aholini daromadli mehnat bilan band qilish, sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish kabi ustuvor tendensiyalarining pragmatik hodisa (ijtimoiy faollik va mehnat samaradorligini oshirish, jamiyatda ishonch muhitini kuchaytirish) va innovatsion jarayon (intellektual kapital asosida ijtimoiy tuzilmalarni yangilash, tadbirkorlik madaniyatini zamonaviylashtirish va postmodern ijtimoiy ongni shakllantirish) sifatidagi ahamiyati asoslab berilgan;

taraqqiyotning zamonaviy bosqichida mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillarining aksiologik-axloqiy (halollik, mas'uliyat, adolat) va ijtimoiy-iqtisodiy (erkinlik, hamkorlik, samaradorlik), pragmatik-amaliy (innovatsion, barqarorlik, “yashil faoliyat”) kabi ijtimoiy-falsafiy omillari dialektikasi asosida milliy manfaatlarimizga mos keluvchi tadbirkorlik madaniyatini ta'lim va tarbiya tizimi orqali shakllantirish, innovatsion iqtisodiyotga yo'naltirilgan ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish kabi optimallashtirish yo'llari takomillashtirilgan;

yoshlar iqtisodiy faolligini oshirish, tadbirkorlik va mulkdorlik savodxonligini yuksaltirishning ta'lim-tarbiya (iqtisodiy tafakkurini, moliyaviy savodxonligi va tashabbuskorligini rivojlantirish), institutsional-huquqiy (iqtisodiy erkinlikni kafolatlash va mulkiy daxlsizligini ta'minlash), ma'naviy-axloqiy (iqtisodiy faoliyatni milliy qadriyatlar, halollik, mehnatsevarlik va ijtimoiy mas'uliyat asosida yo'naltirish) kabi mexanizmlarini optimallashtirishga oid taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

yoshlar iqtisodiy faolligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va mulkdorlik madaniyatini shakllantirishning ta'limga oid modelida “tadbirkorlik tafakkuri” va “mulkdorlik madaniyati”ni shakllantirish, startap laboratoriyalar, yoshlar biznes inkubatorlari hamda mentorlik dasturlari asosida iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish, mas'uliyatli, tashabbuskor shaxs sifatida tarbiyalash zarurati asoslangan;

tadbirkorlik va biznes faoliyatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan institutsional-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha “kengash” tuzish, tadbirkor yoshlar uchun soliq imtiyozlari, davlat grantlari va soddalashtirilgan investitsion dasturlarni yo'lga qo'yish hamda ularning mulk huquqini mustahkamlovchi huquqiy kafolatlarni kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab

chiqilgan;

yoshlarning iqtisodiy faoliyatini axloqiy fazilatlar bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan "Halol mehnat – haqiqiy mulk" g'oyasini ommalashtirish, tadbirkor yoshlarning ijobiy obrazini yaratish va ularni jamiyatda "xalq bunyodkori" sifatida qadrlash tizimini yo'lga qo'yish dalillangan;

mulkdorlik va tadbirkorlikning zamonaviy tendensiyalari bilan bog'liq amaliy jihatlarini shakllantirish asosida tadbirkorlik faoliyatida milliy ma'naviyat va iqtisodiy pragmatizmning uyg'unligini ta'minlash, salohiyatli tadbirkorlar sinfini tarbiyalash vositalari takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr yetilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy yetilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g'oyalardan mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillarining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini yangicha metodologik yondashuv asosida izohlab berishda, insonning yaratuvchan tabiati va ijtimoiy qadriyatlarni anglash madaniyati sifatida talqin etishda va shu orqali jamiyat taraqqiyotida iqtisodiy erkinlikning ma'naviy mazmunini ochish, ijtimoiy adolat, halollik, mehnatning qadrini bilish, mulkdorlik madaniyati va tadbirkorlik tafakkuri masalalarini integrativ tarzda tadqiq etishda nazariy-metodologik asos sifatida, shuningdek, ma'rifiy tadbirlarda, mazkur yo'nalishda mutaxassislarni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatida, jahon sivilizatsiyasi tajribalari bilan uyg'unlashtirishda yangicha nazariy qarashlar, fikrlar hamda g'oyalar bilan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosalar, taklif va tavsiyalarni Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy islohotlar mazmuniga singdirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, fuqarolik jamiyatini barpo etishda iqtisodiy tafakkur madaniyatini shakllantirish, ta'lim tizimida "tadbirkorlik madaniyatini" shakllantirish, davlat va jamoat tashkilotlarining mulk va ishlab chiqarishga oid qarorlarini muvofiqlashtirishda, "Har bir tadbirkor – jamiyat bunyodkori" tamoyilini amaliyotga joriy etishda, tadbirkorlik va fermerlikni qo'llab-quvvatlash markazlari faoliyatida, shuningdek, ta'lim tizimida o'quv-modullar va metodik qo'llanmalar tayyorlashda, targ'ibot-tashviqot, mediamahsulotlar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yangi O'zbekiston taraqqiyotida mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillarining ahamiyatini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatining erkin tanlov va ijodkorlik aloqadorligi, insonni ma'naviy qadriyatlar yaratuvchi, jamiyat farovonligi uchun

mas'ul ijtimoiy mavjudot sifatida ifodalovchi ijtimoiy-falsafiy mazmuni, individual (shaxsning mustaqil tashabbusi va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish), ijtimoiy (hamkorlik va kooperatsiya orqali insonparvarlikni ta'minlash), innovatsion (yangi g'oya va texnologiyalar asosida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni modernizatsiya qilish) kabi namoyon bo'lish xususiyatlari hamda yaratuvchanlik, barqarorlik, insonparvarlik kabi falsafiy mohiyatiga oid nazariy xulosalar va metodologik tavsiyalardan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining 2024-yilga mo'ljallangan yo'l xaritasidagi "Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish" yo'nalishi 4-bandi "Erkin fuqarolik jamiyatini va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada takomillashtirish, O'zbekistonni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha xabga aylantirish"da foydalanilgan (Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2024-yil 30-oktyabrdagi 01-27/351-son ma'lumotnomasi). Natijada, partiyasining ish rejasiga kiritilgan tadbirlarni amalga oshirishda o'ziga xos manba vazifasini hamda partiya faoliyatidagi dolzarb masalalarni samarali hal etishga hal etishga xizmat qilgan;

mulkdorlik va tadbirkorlikning halollik va adolat, ijodkorlik va tashabbuskorlik, mas'uliyat va hamjihatlik kabi umuminsoniy tamoyillari amaliyoti asosida Yangi O'zbekiston mulkdorlari va tadbirkorlariga vatanparvarlik va ijtimoiy burchni chuqur his etish, raqobatbardosh ishlab chiqarish va ishchi o'rni yaratish, halollik va sadoqat kabi xususiyatlarni mustahkamlash dinamikasiga oid g'oya va takliflardan Yoshlar ishlari agentligining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi"ning VII bob "Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari" 51-bandi "Jamiyatida, ayniqsa, yoshlarda fuqarolik pozitsiyasi va ularning huquqiy madaniyatini oshirishning g'oyaviy-mafkuraviy mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusiga doir turli tadbirlar va seminarlarni tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 7-noyabrdagi 1-13-21-5816-son ma'lumotnomasi). Natijada, kelgusida yoshlar tadbirkorligi va ular salohiyatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy loyihalarini ishlab chiqish va tashkil etishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan;

"O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirishda mulkdorlik va tadbirkorlikning innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, aholini daromadli mehnat bilan band qilish, sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish kabi ustuvor tendensiyalarining pragmatik hodisa (ijtimoiy faollik va mehnat samaradorligini oshirish, jamiyatda ishonch muhitini kuchaytirish) va innovatsion jarayon (intellektual kapital asosida ijtimoiy tuzilmalarni yangilash, tadbirkorlik madaniyatini zamonaviylashtirish va postmodern ijtimoiy ongni shakllantirish) sifatidagi ahamiyatiga oid ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-2024-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida, jumladan, 2023-yil uchun chora tadbirlar dasturining II yo'nalishida belgilangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi mazmun-mohiyati hamda mamlakatimizda

amalga oshirilayotgan islohotlar targ‘iboti” 9-bandi “Yangi O‘zbekiston xalqparvar davlat” tamoyilini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan islohotlar mazmun mohiyatini targ‘ib qilish borasidagi ustuvor vazifalar” mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 4-noyabrdagi 10/144-son ma’lumotnomasi). Natijada, jamiyatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida tadbirkorlar ma’naviyatini yuksaltirishga, ularda milliy qadriyatlarga sodiqlik tuyg‘usini mustahkamlashga hamda Yangi O‘zbekistonda mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyilini ijtimoiy-falsafiy tahlil etishga xizmat qilgan;

taraqqiyotning zamonaviy bosqichida mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillarining aksiologik-axloqiy (halollik, mas’uliyat, adolat) va ijtimoiy-iqtisodiy (erkinlik, hamkorlik, samaradorlik), pragmatik-amaliy (innovatsion, barqarorlik, “yashil faoliyat”) kabi ijtimoiy-falsafiy omillari dialektikasi asosida milliy manfaatlarimizga mos keluvchi tadbirkorlik madaniyatini ta’lim va tarbiya tizimi orqali shakllantirish, innovatsion iqtisodiyotga yo‘naltirilgan ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish kabi optimallashtirish yo‘llariga doir ilmiy yangilik sifatidagi taklif va tavsiyalaridan O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Xodimlarning malakasini oshirish markazining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” PF-37-son farmonida belgilangan vazifalar, tadbirkorlik faoliyatida o‘zini-o‘zi band qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlarni, “Hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish” dasturlarini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlarining malakasini oshirish markazining 2024-yil 19-dekabrdagi 02/0036-son ma’lumotnomasi). Natijada, mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi davrida mulkdorlik va tadbirkorlik tendensiyasi bilan bog‘liq amaliy jihatlari ochib berishga, o‘quv dasturlar yaratishga, mulkdorlik va tadbirkorlik tendensiyasini yanada yuksaltirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolik institutlari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan aniq takliflar va tavsiyalar, ularni amaliyotga qo‘llash bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar ishlab chiqishga, xodimlar malakasini oshirish markazi faoliyatidagi dolzarb masalalarni hal etishga xizmat qilgan;

yoshlar iqtisodiy faolligini oshirish, tadbirkorlik va mulkdorlik savodxonligini yuksaltirishning ta’lim-tarbiya (iqtisodiy tafakkurini, moliyaviy savodxonligi va tashabbuskorligini rivojlantirish), institutsional-huquqiy (iqtisodiy erkinlikni kafolatlash va mulkiy daxlsizligini ta’minlash), ma’naviy-axloqiy (iqtisodiy faoliyatni milliy qadriyatlar, halollik, mehnatsevarlik va ijtimoiy mas’uliyat asosida yo‘naltirish) kabi mexanizmlarini optimallashtirishga oid taklif-tavsiyalar, ilmiy yangiliklardan O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati faoliyatida, jumladan, “Jahon falsafasi qomusi”ning “Mulkdorlik”, “Tadbirkorlik” maqolalarini tayyorlashda, 2023-yil 13-maydagi 80-01/90-son “Ekstremizm va terrorizm profilaktikasining zamonaviy omillari va texnologiyalari” grant loyihasi asosida nashr qilingan “Ekstremizm va terrorizm profilaktikasining zamonaviy

texnologiyalari” kitobini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Faylasuflar milliy jamiyatining 2025-yil 15-apreldagi 36-son ma’lumotnomasi). Natijada, mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy- falsafiy mazmuni, uning shakllari va oziga xos xususiyatlari, ularning umuminsoniy tamoyillari amaliyotini o‘rganish asosida Yangi O‘zbekiston mulkdorlari va tadbirkorlariga xos xususiyatlarni mustahkamlash dinamikasining ma’no-mazmunini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 12 ta ilmiy maqola (10 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 233 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillarining taraqqiyotdagi ahamiyatini tadqiq etishning nazariy-metodologik masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida jamiyatda mulklar qatlamining o‘rni va ahamiyati, tadbirkorlikning barqaror taraqqiyotni ta’minlashdagi roli hamda yangilanayotgan O‘zbekistonda mulkdorlik va tadbirkorlikning namoyon bo‘lish xususiyatlari va bu sohada islohotlarning konseptual tamoyillari asoslab berilgan.

Mulkdorlik va tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyatini ta’minlash maqsadida davlatning strategik siyosati tog‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishi, tijorat faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar o‘rtasida monopolistik tendentsiyalar yuzaga kelish holatlariga barham berish, bu sohada adolatsiz raqobatning oldini olish va korrupsiya holatlarini bartaraf etish zarur. Ayni shu holat mulkdorlik tamoyillarining butun jahon xalqlari hayotining murakkab va serqirra hodisasi sifatidagi ijtimoiy-falsafiy mazmun-mohiyatini chuqur o‘rganish zarurligini anglatadi. Ushbu yo‘nalishdagi ishlar esa, dunyoning eng ilg‘or mamlakatlari hayotini ta’minlovchi barcha iqtisodiy asoslarni yaratish va ushbu davlatlar

qudratini ta'minlashda mulkdorlar, tadbirkorlar va kichik biznes sohasi vakillari yetakchi o'rinni egallashi bilan bog'liq tamoyilga tayanadi. Xususan, "tadbirkorlik bilan shug'ullanadiganlar va kichik korxonalarda faoliyat ko'rsatayotganlar AQSh va Yaponiya kabi ilg'or mamlakatlardagi ish bilan band aholining 80 foizdan ortiqrog'ini tashkil etayotgani fikrimizning yaqqol dalilidir"<sup>12</sup>.

Tadqiqotda "mulkdorlik" tushunchasi "mulk" atamasidan kelib chiqqanligi asoslangan. "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonunga muvofiq mamlakatimizda mulk daxlsiz va har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqlidir"<sup>13</sup>. Mulk va unga oid munosabatlar to'g'risida meyoriy hujjatlar va yuridik adabiyotlarda ta'riflar berilgan. Ko'pchilik e'tirof etgan ta'rifga ko'ra, "mulk" moddiy va ma'naviy ne'matlarning muayyan kishilar egaligida bo'lishi va ular tomonidan o'zlashtirilishini ifodalaydigan tushunchadir"<sup>14</sup>. "Jahon falsafasi qomusi"da "Mulk – iqtisodiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy ishlab va chiqarish kishilar o'rtasidagi munosabatlarda ifodalanadi. Mulk shakllarining rivoji ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti bilan belgilanadi"<sup>15</sup>, - deb ta'riflangan.

Mulkdorlik va tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" O'RQ-328-son qonunida bu haqdagi huquqiy asoslar belgilab berilgan. "Tadbirkor - bu o'zining iqtisodiy holatiga ko'ra o'z foydasini ko'zlaydigan shaxs. Biroq, shunga qaramay, tadbirkor katta va muhim xizmatlarni taqdim etadi. Balki u ishlab chiqarish va mulkdorlik va tadbirkorlik obyektlarini yaratish orqali xalq xo'jaligini shakllantiradi, jamiyat a'zolarini ish bilan ta'minlaydi, jamiyatning mahsulot va xizmatlariga soliq to'laydi va o'z foydasiga soliq to'lay olmaydi. U umumiy soliqni to'lashda ishtirok etadi"<sup>16</sup>.

Dissertant fikricha, butun dunyodagi barcha mulkdor va tadbirkorlarning zamonaviy ish yuritish tamoyillariga tayanishi ular faoliyatining falsafasini, mantig'ini ham belgilaydi, ushbu jarayonning subyektiv jihatlarini, yangilik va yutuqlar, innovatsiyalarga intilishini o'ziga xos ifodasi sifatida yuzaga keladi. Bu o'z navbatida tadbirkorlikning umuminsoniy, ya'ni dunyodagi barcha tadbirkorlar uchun umumiy bo'lgan tartib-qoidalar, ish uslublari va hammabop vositalar majmuiga amal qilish zarurligini isbotlaydi. Ayni ana shu jihatlar mulkdor va tadbirkorlar faoliyatining zamonaviylik, innovatsionlik, kreativlik kabi omillar bilan uzviy bog'liqligini, ularga xos milliylik va mintaqaviylik dialektikasini, tadbirkorlik faoliyatining muayyan joy, hudud, mamlakat yoki mintaqqa bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarining mavjudligini anglatadi. Ya'ni har bir tadbirkor o'zi yashaydigan makon va zamon talablarini, muayyan mamlakat yoki xalq

---

<sup>12</sup> Тўхлиев Н. Ҳақбердиев Қ. Эрматов Ш. Холматов Н. Ўзбекистон иқтисодиёти асослари. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, 2016. – Б 47.

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi qonuni. - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son; 25.10.2023 y., 03/23/871/0797-son); - <https://lex.uz>.

<sup>14</sup> Тўхлиев Н. Ҳақбердиев Қ. Эрматов Ш. Холматов Н. Ўзбекистон иқтисодиёти асослари. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, 2016. – Б 17.

<sup>15</sup> Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб. - Т.: "Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти", 2023. – Б 838.

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-son qonuni. 2012 yil 2 may. <https://www.lex.uz/acts/2006789>

xussiyatlarini ham o'z biznesida biror-bir tarzda aks ettiradi, mavjud an'analarga tayanadi.

Xalqimizga xos mulkdorlik va tadbirkorlik tendensiyalari, ishbilarmonlik an'analari va milliy xususiyatlar mamlakatimiz tadbirkorlari faoliyatida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ushbu yo'nalishda milliy omillarning ta'sirchanligi globallashtirish va dunyo tadbirkorlari orasidagi aloqalarning kuchayishi mazkur jarayonning amaliyoti va transformatsiyasiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Dissertatsiyada mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyati ishlab chiqarish vositalari, mulkiy va intellektual mulk bilan amalga oshirilishi qayd etilgan. Mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyati keng doiraga ega bo'lganligi sababli, bu faoliyatning turli shakllari mavjud. Har bir shakl o'ziga xosligi bilan farq qiladi. Jahon mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik, o'rta va yirik korxonalarni aniqlashning yagona mezonlari mavjud emas. Mamlakatimizning istalgan hududidagi muassasalar miqyosida sezilarli xilma-xillik mavjud. Kichik va o'rta korxonalarni to'g'ri tasniflash uchun ularning tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy tomonlarini, sifat xususiyatlarini aniqlab olish zarur, bu ham kichik va o'rta korxonalarga misoldir. Ko'proq ta'sischi, xodimlar soni, kapital miqdori, sotiladigan mahsulot miqdori, kapital qo'yilmalar miqdori va boshqalar. ko'rsatish tartiblari tasniflagichlarni ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Tadqiqotchi fikriga ko'ra, mamlakat iqtisodiyotiga kuchli hissa qo'shish uchun ilmiy-texnikaviy mulkdorlik va tadbirkorlikni rivojlantirish davlatning ustuvor yo'nalishi bo'lishi kerak. Mulkdorlik va tadbirkorlikni rivojlantirishda ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik jihatlar e'tiborga olinishi va qadrlanishi kerak. Zamonaviy iqtisodiyot va mulkdorlikning shakllanishi va barqarorligi to'g'ridan-to'g'ri keng ko'lamlilik va erkin mulkdorlik va tadbirkorlikni rivojlantirishga bog'liqligi haqiqatdir. Ko'pgina mamlakatlardan farqli o'laroq, mamlakatda mulkdorlik va tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiyotni tartibga solish va monopoliyadan chiqarish holatida shakllanadi. Mulkdorlik va tadbirkorlikning turli shakllarining shakllanishi iqtisodiy sharoit va xalqaro integratsiya darajasiga bog'liqligi shubhasiz.

Dissertatsiyada mamlakatimizda iqtisodiy sohada ro'y berayotgan jarayonlar mulkdorlik va tadbirkorlik borasidagi islohotlar tobora chuqurlashib borayotgani ta'kidlangan. Ayni paytda, bu borada yuzaga kelgan bugungi amaliyot *mulkdorlar va tadbirkorlar bilan davlat-xususiy hamkorlikni kengaytirish, mulkdorlik va tadbirkorlik subyektlarini ifodalovchi institutlarni mustahkamlash, mulkdorlar va tadbirkorlarni tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, mulkdorlik va tadbirkorlik sohasida raqobat muhitini yaxshilash, mulkdorlik va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida biznes hamkorlikni rivojlantirish kabi muhim tamoyillarga alohida e'tibor qaratish zarurligidan dalolat beradi. Buning uchun makroiqtisodiy siyosatdan tortib, O'zbekiston fuqarolari, ayniqsa, mulkdorlar va tadbirkorlarga tegishli ko'plab vazifalarni o'z ichiga olgan va aniq maqsadlarga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Mazkur tamoyillarning amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizda mulkdorlik va tadbirkorlik muammolarini adolatli hal etish yanada ta'minlanadi.*

Qulay muhit yaratish, raqobat muhitini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratishni jadallashtirish, iste’mol sektori kengayishini ta’minlashda mulkdorlik va tadbirkorlik tizimida kichik va o‘rta tadbirkorlarning o‘rni katta. Buning ahamiyati shundaki, mahalliy iqtisodiy sohaga tez moslasha olish, mulkdorlik va tadbirkorlikda katta erkinlikka ega bo‘lish, iqtisodiy faoliyat band bo‘lgan paytda qabul qilingan qarorlarning tezkor amalga oshirilishi va ishlab chiqarish xarajatlari, insonning o‘z g‘oyalari va fikrlarini amalga oshirish qobiliyati, mahsulot shakli va sifatini iste’molchilar talabiga muvofiq o‘zgartirishi va hokazolar bu jabhaning afzalliklaridir.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, mulkdorlik va tadbirkorlik fenomenlari insonning iqtisodiy erkinligi va tashabbuskorlik salohiyatining namoyon bo‘lish shakli sifatida talqin etiladi. Ular jamiyat taraqqiyotining faqat iqtisodiy emas, balki ma’naviy va madaniy o‘rishini ham belgilovchi muhim omillardandir. Mulkdorlikning mohiyati insonning o‘z mehnat mahsuliga egalik qilish huquqini, tadbirkorlik esa bu mulkni ijtimoiy foyda yo‘lida oqilona boshqarish, yangi qadriyatlar yaratish jarayonini anglatadi. Yangilanayotgan O‘zbekistonda mulkdorlik va tadbirkorlik shakllari demokratik islohotlar, bozor mexanizmlarining erkinlashuvi, shaxs manfaatlari bilan jamiyat farovonligi o‘rtasidagi uyg‘unlik tamoyiliga asoslangan holda rivojlanmoqda. Xususiy mulk daxlsizligi, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy etish jarayonida milliy qadriyatlar bilan global bozor madaniyati o‘rtasida muvozanatni saqlash dolzarb falsafiy masalaga aylanmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “ **Yangi O‘zbekistonda mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillari mustahkamlanishining siyosiy-huquqiy va institutsional asoslari**” deb nomlangan va unda iqtisodiy tizim transformatsiyasi sharoitida mulkdorlik faoliyatini tartibga solish va institutsional omillarini mustahkamlash zarurati, O‘zbekistonda mulkdorlik va tadbirkorlikning tizimli iqtisodiy mexanizmlari va uning o‘ziga xos xususiyatlari hamda mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatini normativ-institutsional himoya qilish mexanizmlari tadqiq etilgan.

Mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyati jamiyat a‘zolarining ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan, o‘z tavakkalchiligi va mulkiy javobgarligini zimmasiga oladigan o‘z-o‘zini ta’minlaydigan iqtisodiy faoliyatidir. Bu faoliyatning huquqiy asoslarini ta’minlash turli iqtisodiy qonunlar va mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatining ko‘plab sohalarini qamrab oluvchi tegishli qonun hujjatlari orqali amalga oshiriladi. Rivojlangan bozor mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlatning xususiy mulk huquqlarini himoya qilish va tuzilgan shartnomalar bajarilishini ta’minlash mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatini normal amalga oshirishning zaruriy sharti bo‘lib hisoblanadi.

Dissertatsiyada mamlakatda kichik va o‘rta biznes rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan islohotlarning manzilliligini ta’minlash maqsadida kichik va o‘rta biznes subyektlari mezonlari belgilash zarurati asoslab berilgan. Mezonlarga

ko‘ra yirik, o‘rta va kichik tadbirkorlik turlari quyidagicha tasniflangan<sup>17</sup>: (Qarang: 1-rasm)

**1-rasm**

<b>Hajmi bo‘yicha tadbirkorlik subyektlari toifasi</b>	<b>Xodimlarning o‘rtacha ro‘yxati</b>	<b>Yillik daromad</b>
Kichik tadbirkor	15 kishigacha	200 mln so‘mgacha
O‘rta tadbirkor	15 dan 125 kishigacha	200 mlndan 1250 mln so‘mgacha
Katta tadbirkor	125 kishi va undan yuqori	1250 mln so‘m va undan yuqori

**1-rasm. Yirik, o‘rta va kichik tadbirkorlik mezonlari**

Tadqiqotda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasi jarayonida qulay ishbilarmonlik va sarmoyaviy muhitni yaratish orqali mahalliy va xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, mulkdorlik sektorining kuchli rivojlanishiga erishish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Respublika salohiyatini hisobga olgan holda muvaffaqiyatli sanoat va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi va muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Bu boradagi ishlar, o‘z navbatida, sohani rivojlantirish bilan bog‘liq yordamchi hududlarni rivojlantirishga turtki bo‘ldi, hududdagi mahalliy tadbirkorlarning mavqei mustahkamlandi. Mulkdorlik va tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida qabul qilingan davlat dasturlari ushbu sohani rivojlantirishda alohida o‘rin tutib, kichik va o‘rta mulkdorlik va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatini O‘zbekiston davlati iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Mazkur Davlat dasturlari doirasida iqtisodiyot, mulkdorlik va tadbirkorlikni tartibga solishda muhim o‘zgarishlar amalga oshirilib, tadbirkorlarga davlat tomonidan moliyaviy yordam ko‘rsatish tizimi shakllantirildi<sup>18</sup>.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda mulkdorlik va tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash mezonlari quyidagi yo‘nalishlarga ega:

- kichik mulkdorlik va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish infratuzilmasini shakllantirish;

- mulkdorlik va tadbirkorlikka ko‘maklashish dasturlarini tayyorlash va bunday dasturlarni amalga oshirishni tashkil etish;

- mulkdorlik va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy, moddiy, ilmiy-texnikaviy va axborot resurslari bilan ta’minlashning qulay imkonini yaratish;

- mulkdorlik va tadbirkorlik subyektlariga kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasida yordam ko‘rsatish;

- mulkdorlik va tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati, shu

<sup>17</sup> Azamatov Sh. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka asoslangan xizmat ko‘rsatish sohasining institusional asoslari. <http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/45275>

<sup>18</sup> Ashurov Z. “Iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida biznesning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish masalalari”. //“Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti: ustuvor yo‘nalishlar va kelajak istiqbollari” mavzusidagi konferensiya maqolalari to‘plami. -Toshkent: IFMR, 2022. – B. 319.

jumladan tashqi savdo evaziga ishlab chiqarish, moliya, kredit, savdo, ilmiy-texnikaviy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;

- mulkdorlik va tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, soliq, statistik va buxgalteriya hisobotlarini taqdim etish, ular faoliyatini litsenziyalash va ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini sertifikatlashning soddalashtirilgan tizimini joriy etish;

- mulkdorlik va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlarni tashkil etish va boshqalar.

Ana shu asoslar O'zbekiston Respublikasida mulkdorlik va tadbirkorlikni rivojlantirishning zamonaviy holati va uni boshqarishning kompleks tahlili ushbu murakkab iqtisodiy tizimning o'zgarishi, hozirgi vaqtda mavjud institutsional muammolar haqida tasavvurni shakllantiradi, albatta.

Tadqiqotda mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatini normativ-huquqiy ta'minlash uchun zarur bo'lgan turli qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi markaziy ijro etuvchi hokimiyat organlarining normativ hujjatlari va ularning bu boradagi amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Shubhasiz, mulkdorlik va tadbirkorlik subyektlarining yetarli darajada faoliyat yuritishi qonunchilik bazasini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu takomillashtirish mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatini himoya qilishni nazarda tutishi kerak. Huquqiy asosning yetarli darajada bo'lishi mulkdorlik va tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biridir. Bu boradagi qonunchilikni takomillashtirish, mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvni kamaytirishga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Konstitusiyada ta'kidlanganidek, taraqqiyot yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan milliy jamiyatning birligiga erishish iqtisodiyotni bozorga yo'naltirilgan holda yo'lga qo'yishning muhim sharti hisoblanadi<sup>19</sup>. Bozor iqtisodiyotining eng muhim tamoyillaridan biri sifatida iqtisodiy sikllarning tengligi ishbilarmonlik va mulkdorlik va tadbirkorlik faolligi va iqtisodiy faollikni oshirishning asosiy omillaridan biridir. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni respublikamizda mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillarini, mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquq va majburiyatlarini, uni himoya qilish va rag'batlantirish shakllari va usullarini, tadbirkorlarning davlat bilan o'zaro muvofiqligini belgilaydi<sup>20</sup>. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlatda mulkdorlik va tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy va meyoriy bazasining alohida elementlari doimiy ravishda yangilanadi va hozirgi vaqtda faoliyatning meyoriy-huquqiy bazasi bir butun sifatida qabul qilinib, mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyati oldida turgan muammolarni hal etish jadallashtirilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, soliqlarni kamaytirish, mulkdorlik va tadbirkorlik

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – B. 14

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni, 02.05.2012 yildagi O'RQ-328-son. <https://lex.uz/ru/docs/-2006789>

faoliyati daromadlarini ko'paytirish, monopoliyaga qarshi kurashni kuchaytirish, bu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan qonun hujjatlarini qabul qilish zarur.

Dissertant fikricha, davlat, mulkdorlik va tadbirkorlik, texnologiya va hayotning muvaffaqiyatli uyg'unligiga erishish va O'zbekistonda tez va barqaror rivojlanishga, inson rivojlanishiga va hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi mulkdorlik va tadbirkorlik tizimini shakllantirish kerak. Shu bilan birga, huquqiy me'yoriy hujjatlarda hududlarda mulkdorlik va tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish chora-tadbirlarini kuchaytirish va bunda mamlakatimiz hududlarida mavjud iqtisodiy salohiyatdan to'liq foydalanish, har tomonlama rivojlantirish zarur. Hududlarda yangi ishlab chiqarish korxonalarini, ijtimoiy-madaniy obyektlarni barpo etish, yangi ish o'rinlarini ochish, ahaoli turmush darajasini oshirishga erishish bu boradagi marra va maqsadlarni belgilaydi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, Yangi O'zbekiston sharoitida iqtisodiy tizim transformatsiyasi mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatini siyosiy-huquqiy jihatdan tartibga solish, ularning institutsional asoslarini mustahkamlash bilan uzviy bog'liqdir. Bu jarayonda bozor mexanizmlari, xususiylar sektor va fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini kuchaytirish, inson manfaatlari, mulkka egalik va uni boshqarish erkinligi o'rtasida muvozanatni ta'minlash, tadbirkorlikni ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan faoliyat sifatida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mulkdorlik va tadbirkorlikning tizimli iqtisodiy mexanizmlari shakllanishida xususiylashtirish, raqobat muhitini kengaytirish, investitsion muhitni yaxshilash, soliq va kredit siyosatini erkinlashtirish kabi omillar asosiy rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy yo'naltirilganligi, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali jamiyat farovonligini oshirishga qaratilganligi mulkdor shaxsni faqat iqtisodiy faol shaxs sifatida emas, balki ijtimoiy o'zgarishlarni faollashtiruvchi, yangilanish va taraqqiyotning tashabbuskori sifatida talqin etish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Yangi O'zbekistonda mulkdorlik tamoyillarini rivojlantirish jarayoni va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida mulkdorlik tamoyillarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, bu faoliyatning huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurati hamda tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotda mamlakatimizdagi tadbirkorlik sohasiga oid ma'lumotlar va dalillar tahlil etilgan. 2025-yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan xususiy korxonalar va firmalar soni 1,212 mingdan ortiqni tashkil etishi, xususan, bu ko'rsatkich 479 ming kichik korxonalar va mikrofirmalar, 281900 ta individual tadbirkorlar, 422300 ta dehqon xo'jaliklari va boshqa kichik subyektlar tashkil qilishi dalillangan. Tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 32,1 birlikni tashkil qilmoqda. 2025-yil yanvar-sentabrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 51,5 foizni tashkil etgan<sup>21</sup>. Ayni paytda, mulkdorlik va tadbirkorlik sub'yektlarining kapital

---

<sup>21</sup> [https://www.uzdaily.uz/en/small-business-in-uzbekistan-accounts-for-over-half-of-gdp-in-2025/?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.uzdaily.uz/en/small-business-in-uzbekistan-accounts-for-over-half-of-gdp-in-2025/?utm_source=chatgpt.com)

qo'yilmalari, moliyasi, soliqlari va kreditlari bilan bog'liq murakkab me'yoriy hujjatlarning mavjudligi, texnik va axborot bazasining past darajasi, ichki bozorning yetarli darajada himoyalanganligi, bozor infratuzilmasi zamonaviy texnologiyalarga ega emasligi, qonunchilik bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, amaldagi qonunchilikda qator kamchiliklar mavjudligi, bu boradagi qonun hujjatlarining yetarli darajada yoritilmaganligi bilan bog'liq ba'zi muammolar saqlanib qolmoqda.

Dissertant ta'kidlashicha, respublikani rivojlantirishning konseptual dasturi asosida olib borilgan islohotlar natijasida mamlakatimizda tadbirkorlar huquq va erkinliklarini ta'minlash kafolatlarini bera oladigan moddiy va ma'naviy asoslar yaratildi. Tekshirishlarning ikki yil muddatga to'xtatilishi, tekshirishlarning yagona reyestri yuritilishi va tekshiruvlar subektlarini oldindan xabardor qilish mulkdorlik va tadbirkorlik sohasiga alohida ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida hamda markaziy va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari huzurida kengashlar tashkil etilishi va Biznes ombusmani faoliyati yo'lga qo'yilishi mulkdorlik va tadbirkorlik subektlari uchun qimmat bo'lgan va pirovardida mahsulot tannarxida o'z aksini topadigan qo'shimcha xarajatlarni kamaytirishda katta rol o'ynadi. Mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashish va sun'iy to'siqlarni bartaraf etish, ushbu faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda ma'muriy qoida va tartiblarni takomillashtirish, rag'batlantirish mexanizmlarini optimallashtirish va elektron davlat xizmatlari ko'rsatish ko'lamini kengaytirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Mamlakatda mulkdorlik va tadbirkorlikni rivojlantirish ehtiyoji mahalliy va xorijiy investorlar uchun ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yanada yaxshilash, eng ilg'or xalqaro amaliyotga muvofiq yanada jozibador biznes va investitsiya muhitini shakllantirishni taqozo etadi. Xorijiy investorlar ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarga ishonch bildirib, o'z investitsiyalari bilan iqtisodiyotning rivojlanishida ishtirok etmoqda. Xususan, sungi 5 yilda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni 3 martaga oshib, 14 mingdan ortiqni tashkil etadi<sup>22</sup>.

Dissertatsiyada mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining fundamental va hal qiluvchi asoslari, ya'ni mulk himoyasi va erkinlik kafolatlari yangilangan Konstitusiyada oliy huquqiy kuch darajasiga ko'tarilgani asoslangan. Tadbirkorlik faoliyatining tamal toshlari hisoblangan mulk va erkinlik bevosita konstitusiyaviy himoya ostiga olinmoqda. Ushbu hujjatlarning barchasi mulkdorlar va tadbirkorlarga o'z mulkiga tayanib, muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanishga qaror qilishi, muayyan tadbirkorlik subekti, korxonasi ochishi, shu yo'nalishda ishni tashkil qilishi, yangi ish o'rinlarini yaratishi va mamlakat iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shishi uchun mustahkam asos bo'lmoqda. So'nggi yillarda tadbirkorlik faoliyatiga nafaqat qulay biznes muhitini yaratish, balki uning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar tizimli ravishda amalga oshirilayotganligi bu boradagi hech shubhasiz ta'kidlash lozim bo'lgan muhim

---

<sup>22</sup> Norboyev O.A. "Milliy iqtisodiyotda mulkchilik munosabatlarini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish" Falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Toshkent: 2020. – B. 54.

omillardan biridir. Shu ma'noda, mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatini uzluksiz rivojlantirish O'zbekistonda davlat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

So'nggi yillarda xalqaro maydonda bo'layotgan o'zgarishlar butun dunyo, shu jumladan, milliy iqtisodiyotimizga ham katta ta'sir o'tkazmoqda. Turli ziddiyatlar tufayli logistika va mahsulot yetkazib berish zanjirining uzilgani, hamkor mamlakatlar valyutasining qadrsizlangani, global miqyosda inflyatsiya darajasi yuqori bo'lib qolayotgani oqibatida moliyaviy resurslarning qimmatlashgani kabi omillar ta'sirini soha vakillari sezib turibdi. O'z navbatida bu butun *jamiyat hayoti, xususan mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yanada kuchaytirish* hamda bu jabhadagi omillar va shart-sharoitlarni yuqori darajaga ko'tarishni talab qilmoqda. Bularga:

*birinchidan*, mulk masalalari bo'yicha faoliyatning moliyaviy imkoniyatlarni yaxshilash;

*ikkinchidan*, mulkdorlik va tadbirkorlik subyektlari uchun kreditlarni kafolatlash tizimini mustahkamlash;

*uchinchidan*, lizing va muqobil moliyaviy vositalar bozorini rivojlantirish kiradi.

Mulkdorlik va tadbirkorlik tarmoqlari uchun *eksport birlashmalarini* tashkil etish ushbu soha rivojiga katta ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy omillardan biridir. *Import uyushmalarini* rivojlantirish mulkdorlik va tadbirkorlik sohasini taraqqiy ettirishning yangi usullari va innovatsion vositalarini talab qiladi. Import assotsiatsiyalarini tashkil etish uchun tajriba sifatida mulkdorlik va tadbirkorlik ko'proq bo'lgan tarmoqlar tanlanadi. Ushbu faoliyat mulkdorlik va tadbirkorlik subyektlar o'rtasida bir qator importga yo'naltirilgan hamkorlikni o'z ichiga oladi, jumladan seminarlar, treninglar va kurslar tashkil etish orqali bilimlarni oshirish, savdoni rag'batlantirish, sotish va sotib olish missiyalari, import mahsulotlarini ro'yxatga olish, reklama faoliyati va brend yaratish, mahalliy biznesda ishtirok etish, tadbirlar va ko'rgazmalar, bozorlar va omborlar bo'yicha bozor tadqiqotlari, maqsadli bozorlar va ushbu bozorlarda mavjud qonunchilik, loyihalar asosida tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash, ma'lumotlar bazasini markazlashtirilgan boshqarish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Mulkdorlik va tadbirkorlik subyektlari uchun *biznes-inkubatorlarni yaratish* va ular tizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biznes-inkubatorlar faoliyatini to'g'ri tashkil etish yoshlar o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, hududlarni rivojlantirish va innovatsiyalarni rag'batlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda mulkdorlik va tadbirkorlik subyektlari manfaati uchun *namunaviy korxonalar yaratish* tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Ular mulkdorlik va tadbirkorlik rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan imkoniyatlardan biridir. O'zbekistonda kichik va o'rta biznes ishchilari uchun namunaviy korxonalar yaratish eksperimental mashg'ulotlar uchun zarur platforma blib xizmat qilishi mumkin.

*Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish* zamonaviy iqtisodiyotdagi mulkdorlik va ishbilarmonlik biznesining faol qismidir. Umumiy tendentsiya shuni ko'rsatadiki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ayollarning iqtisodiy

tadbirkorligi ortib bormoqda. O‘zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy tadbirkorlik faolligini oshirish, ularning biznesda keng namoyon bo‘lishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni, jumladan, aholi bandligini ta‘minlashda katta ahamiyatga ega.

*Startup loyihalarni qo‘llab-quvvatlash* mulkdorlik va tadbirkorlik rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan yana bir imkoniyatlardan biridir. Startup loyihalari mahalliy mulkdorlik va tadbirkorlik subyektlari uchun o‘rnak, biznes boshlash yoki yangi g‘oyalarini amalga oshirish istagida bo‘lgan mulkdorlar va tadbirkorlar uchun platforma bo‘lishi mumkin.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, mamlakatimizda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi O‘zbekistonda biznes uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, mulkdorlik va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan turli dastur va loyihalarni amalga oshirish, tegishli davlat institutlarining ishtiroki va sa‘y-harakatlari tufayli kelgusi o‘n yillikda ko‘zlangan maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadbirkorlikni milliy manfaatlar, halollik, ijtimoiy mas‘uliyat va ekologik barqarorlik tamoyillari asosida rivojlantirish falsafiy zaruratga aylanmoqda. Konstitutsiyada va qator qonunlarda mulk daxlsizligi, adolatli raqobat va erkin bozor tamoyillari mustahkamlab qo‘yilgani, shuningdek, “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi”, “Har bir oila – tadbirkor” dasturi, “Biznes-ombudsman” kabi institutlarning faoliyati tadbirkorlikni huquqiy himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirmoqda. Bu esa iqtisodiy faol subyektlarning erkin tashabbus ko‘rsatish imkoniyatini kengaytirib, mulkdorlikni ijtimoiy taraqqiyotning poydevori sifatida qarashga yo‘l ochmoqda. Islohotlar jarayonida mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy omillari — inson kapitali, intellektual resurslar, innovatsion texnologiyalar, ijtimoiy ishonch va boshqaruv madaniyatidir. Ushbu omillar uyg‘unlashgan holda iqtisodiy erkinlikni ijtimoiy barqarorlik bilan bog‘laydi, shaxsning mehnatsevarlik, mas‘uliyat va tashabbuskorlik fazilatlarini kuchaytiradi. Shu tariqa, Yangi O‘zbekistonda mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillarining ijtimoiy-falsafiy rivoji jamiyatni modernizatsiya qilishning muhim sharti hamda barqaror taraqqiyotning ma‘naviy negizi sifatida namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **“Yangi O‘zbekistonda mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillari takomillashuvi mexanizmi va uning istiqbolli imkoniyatlari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillarining ma‘naviy omillarini takomillashtirish zarurati, mamlakatimizda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish sohasidagi ustuvor vazifalar, yoshlar ongida mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillarini qaror toptirishning innovatsion mexanizmlari va yo‘llari tadqiq etilgan.

Keyingi yillarda mamlakatimizda mulkdorlik va tadbirkorlikning zamonaviy tamoyillarini o‘zlashtirgan yangi ishbilarmonlar avlodini shakllantirishga alohida ahamiyat qaratilayotgani aslo bejiz emas. Hayotimizning barcha jabhalari kabi, iqtisodiy sohada, ayniqsa tadbirkorlik va mulkdorlikni rivojlantirish borasida ham muhim natijalar qo‘lga kiritilmoqda. Jahonning ilg‘or mamlakatlarida sinovdan o‘tgan yangi samarador vositalar va usullarni samarali qo‘llash orqali “Inson manfaatlarini – barcha narsadan ustun” degan ezgu g‘oya, “Agar jamiyat hayotining

tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir” degan tamoyil hayotga jadallik bilan joriy etilmoqda<sup>23</sup>.

Tadqiqotchi fikricha, zamonaviy tadbirkorlarga xos ma'naviy yetuklikning shartlaridan biri insoniy sifatlarning uyg'unligi masalasidir. Kishining ichki va tashqi dunyosi, sog'lom fikr va oqilona so'zi bilan amaliy faoliyati, tili bilan dili birday bo'lishi yetuklik mezonini va shart-sharoitidir. Bunday uyg'unlikka erishgan odam baxtiyor bo'ladi. Shu bilan birga, har bir tadbirkor inson o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish jarayonida nafaqat moddiy ne'matlar, balki ma'naviy boyliklar, tashkiliy-boshqaruv tuzilmalari, jamiyatda mavjud turli munosabatlarni, ya'ni butun ijtimoiy-ma'naviy hayotni ham yaratadi. Bu jarayonda tadbirkorlik sohasida ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan ma'naviy mezonlar va qadriyatlarning ko'pchiligiga yangi mazmun bag'ishlab, ba'zilarini qayta tiklashdan ko'zlangan maqsad o'tmishga sig'inish emas, balki ma'naviyatning milliy-etnik asoslariga suyanib, undan foydalanib olg'a siljish, taraqqiyotning yangi bosqichiga chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotda mulkdorlar va tadbirkorlarda quyidagi qadriyatlarga ehtirom va ularga amal qilish hamda sadoqat tuyg'ularini tarbiyalash lozimligi asoslab berilgan:

- tug'ilgan makon va ona yurtiga ehtirom;
- avlodlar xotirasiga sadoqat;
- kattalarga hurmat, kichiklarga izzat;
- mehmondo'stlik;
- bolajonlik;
- ma'naviyat–axloq–odob–ma'rifat;
- muomalada mulozamat, hayo, andishalilik;
- og'ir kunlarda vazminlik, sabr–toqat va hokazo.

Bularning barchasi mulkdorlar va tadbirkorlarning ma'naviy qiyofasi hamda ishbilarmonlar va mulkdorlarning mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, bu sohaga kirib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash masalasi tor va kichkina doiradagi mavzu emas, balki butun jamiyat va davlat hayotiga, xalq taqdiriga taalluqli bo'lgan umumiy ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi.

Dissertatsiyada zamonaviy tadbirkorlarimiz ma'naviyatiga umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o'zlashtirish, xalqning tajribasi va an'alarini bilib olish hamda tadrijiy davom ettirish, rivojlantirish nuqtayi-nazaridan yondashish zarurligi ta'kidlangan. Globallashuv jarayonida mafkuraviy kurash o'zining yuqori nuqtasiga chiqayotgan davrda, turli ma'naviy ta'sirlar avvalo, tadbirkorlarning ongini zaharlash va ularni o'z manfaatlari yo'lida foydalanish oqibatlarini shuni isbotlamoqdaki, mana shu qatlam orasida g'oyaviy tarbiya va targ'botini keng ko'lamda yoyish, uning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan turli ma'rifiy tadbirlar, ta'lim tizimi va xilma-xil targ'ibot texnologiyalaridan foydalanish kutilgan natijalarni beradi. Bularning barchasi, yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsadni izchil amalga oshirishga qaratilgan “O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida tadbirkorlar ma'naviy qiyofasini

---

<sup>23</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021. –B 211.

yuksaltirish uchun tizimli faoliyat olib borish hozirgi davr talabi va taqozosi, uni takomillashtirish omillari va tamoyillarini belgilaydigan faoliyat mezoniga aylanayotganidan dalolat beradi. Mamlakat hayotida muhim ahamiyat kasb etayotgan tadbirkorlar va mulkdorlar qatlamining hozirgi zamonga mos ma'naviy qiyofasini shakllantirish bu boradagi faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Tadqiqotda tadbirkorlikni rivojlantirish, bu jabhada belgilangan strategik maqsadlarga erishish va tegishli imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishni ta'minlash maqsadida quyidagi ustuvor tamoyillar qayd etilgan:

- uzoq muddatli istiqbolda O'zbekiston yalpi ichki mahsulotiga kichik va o'rta korxonalarining ta'sirini oshirish maqsadida mamlakatda ishbilarmonlik muhiti va meyoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

- kichik va o'rta biznesning barqaror tarmog'ini yaratish maqsadida moliyaviy resurslardan tejankor va samarali foydalanishni ta'minlash;

- mamlakat valyuta zaxiralarini ko'paytirish va mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan tovarlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash maqsadida kichik va o'rta biznesning faoliyatini xalqarolashtirish va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini oshirish;

- ichki bozor, bozor infratuzilmasini rivojlantirish, zarur hujjatlarni olish uchun "yagona darcha" tamoyilini qo'llash, ushbu sohani ifodalovchi subektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish;

- bozorlarda sifatli mahsulot va xizmatlar taklifini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash va kichik va o'rta biznesning subektlari malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratish;

- innovatsiyalarni rag'batlantirish, kichik va o'rta korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun ushbu sohadagi ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Bular O'zbekistonda kichik va o'rta biznesga nisbatan qonunchilik bazasini takomillashtirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, texnik va axborot bazasini mustahkamlash va hududda kichik va o'rta biznes subyektlarining maqbul joylashuvini ta'minlash orqali moliya va soliq siyosatining rag'batlantiruvchi ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi. 2030-yilgacha bo'lgan davrda kichik va o'rta biznesning kuchayishi hisobiga O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati yanada oshadi, buning natijasida mamlakatda raqobat muhiti to'liq ta'minlanadi va shu tariqa O'zbekiston ham mahalliy, ham xorijiy investorlar uchun iqtisodiyotdagi eng qulay davlatlardan biriga aylanadi<sup>24</sup>.

Dissertant fikricha, tadbirkorlik birlashmalarining rivojlanishi davlat-xususiy sektor muloqotini kengaytirish imkoniyatini yaratadi. Ushbu assotsiatsiyalar kichik va o'rta biznesga ustuvorliklarni amalga oshirishda yordam beradi. Assotsiatsiyalar kichik va xususiy tadbirkorlik agentligi bilan birgalikda tegishli tarmoqlardagi korxonalarining muammolarini muntazam tahlil qilib boradi, ularni tegishli muassasalarga ovoza qiladi va yechim izlaydi. Amalga oshiriladigan islohotlar

---

<sup>24</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030 strategiyasi" to'g'risidagi farmoni 60-sonli, 2023 yil 18 fevral. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

mamlakatda kichik va o'rtta biznesning mustahkamlanishini ta'minlaydi va O'zbekistonning biznes sektori rivojlanishiga doimiy hissa qo'shadi. O'zbekistonda mavjud va yangi tashkil etilgan assotsiatsiyalar tegishli tomonlar bilan birgalikda sifat ko'rsatkichlari va amalga oshirilayotgan operatsiyalarni ilg'or xalqaro tajribaga moslashtirish orqali kichik va o'rtta biznes bilan bog'liq boshqaruv bazasi va standartlarini yaxshilaydi, bu esa mamlakatga ko'proq xorijiy investorlarni jalb qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda O'zbekiston aholisining yarmidan ko'prog'ini yoshlar tashkil etishini hisobga olgan holda, ular orasida mulkdorlar safini oshirish va yangi avlod mulkdorlarini tarbiyalash masalasi islohotlar jarayonidagi muhim yo'nalishlardan biri ekanligi ta'kidlangan. Shu boisdan ham bu borada yoshlarni iqtisodiy savodxonligini oshirish, ularni ushbu yo'nalishdagi yot g'oyaviy va mafkuraviy xurujlar ta'siridan asrash, huquq va manfaatlarini himoya qilish, ongini uzluksiz yuksaltirib borish muhim ahamiyatga egadir. "Bizning eng asosiy yutug'imiz - ko'pmillatli xalqimizning har qanday qiyinchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, yoshlarimizning zamonaviy dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligi yuksalib borayotgani, atrofimizdagi voqealarga beparvo bo'lmasdan, aksincha, daxldorlik tuyg'usi bilan yashayotganidir"<sup>25</sup>. Bularning barchasi yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish bilan bir qatorda amalga oshirilayotgan g'oyalarni yangi bosqichga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi.

Kichik va o'rtta biznes sohasidagi global tendentsiyalardan biri bu kichik korxonalarni barqarorligini ta'minlash orqali ularni o'rtta korxonalar darajasiga olib chiqish, korxonalarining barqarorligini va shu bilan raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini yaxshilashga erishishga qaratilgan. "Bu sohadagi boshqa global tendentsiyalarga quyidagilar kiradi:

- xalqaro tajribaga ko'ra, kichik va o'rtta biznes uchun yuqori xavf omili ularning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini cheklaydi, deb aytish mumkin. Buning natijasida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o'rtta biznesni moliyalashtirish bilan bog'liq holda kafolat fondini yaratish, garovsiz moliyalashtirish mexanizmlarini qo'llash, risklarni sug'urtalash va h.k."<sup>26</sup> kabi maxsus yondashuvni qo'llaydilar;

- davlatlar ko'p millatli kompaniyalarning o'z mahsulotlarining alohida komponentlarini yetkazib beruvchi sifatidagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kichik va o'rtta biznesning global qiymat zanjiriga qo'shilish orqali turli tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Transmilliy kompaniyalar dunyoning turli geografialarida joylashgan kichik va o'rtta korxonalariga buyurtma berish orqali o'z mahsulotlarining deyarli ko'p komponentlarini ishlab chiqaradilar. "Kichik va o'rtta biznes global qiymat zanjirida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tarmoqlar ishtirokchilariga aylanadi"<sup>27</sup>;

---

<sup>25</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023.- B 303.

<sup>26</sup> Abdullaev A. va boshqalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish. – T.: Fan va texnologiya, 2005. – B 44.

<sup>27</sup> Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: Iqtisodiyot, 2021. – B 56.

- "Kichik va o'rta biznes sub'yektlarini qo'llab-quvvatlashni to'g'ri muvofiqlashtirishni ta'minlash va qulay muhitni yaratish maqsadida dunyoning ko'plab mamlakatlarida kichik va o'rta biznes subyektlariga xizmat ko'rsatadigan markazlashtirilgan muassasa"<sup>28</sup> yaratilmoqda;

- kichik va o'rta biznes korxonalarini bozorlarda o'z mavqegini saqlab qolish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun gorizontaal va vertikal klasterlarni yaratadilar. Ushbu klasterlar orqali kichik va o'rta biznes o'z xarajatlarini optimallashtirish hisobiga miqyos effekti ga erishadi.

Yangi O'zbekiston aholisining ijtimoiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirish jarayonida tarbiyalanayotgan yoshlar mamlakatning farovon hayoti, iqtisodiyoti, madaniyati va ishlab chiqarishi sohalarida ijod qiladigan, kelajagimiz poydevorini yaratadigan zamonaviy kadrlardir. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi to'g'risidagi qonun bu boradagi ishlarni yanada yuqori darajaga ko'tarishda dasturilamal bo'lmoqda<sup>29</sup>. Mazkur qonunda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilgan. Bu borada davlat organlari, jamoat va nodavlat tashkilotlari, jamoatchilik institutlarining alohida vazifalari belgilab berilgan. Ayniqsa, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlar bevosita jamoatchilik nazorati asosida tizimli yo'lga qo'yildi.

Tadqiqotchi fikricha, O'zbekistonda yoshlarning o'z iqtidori va salohiyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot va boshqa sohalarida keng imkoniyatlar yaratilgan. Biroq globallashuv jarayoni shiddat bilan davom etayotgan, turli g'oyaviy kurashlar avj olgan tahlikali bir sharoitda ot-onalar, mahalla, ustozlar, keng jamoatchilikning hushyor va ogoh bo'lishi talab etiladi. Zero, yoshlarimiz ana shunday tahdidlar ta'siriga tushib qolmasliklari uchun barchamiz ogoh bo'lishimiz lozim. Bu boradagi ishlarni davom ettirib, yoshlarning siyosiy ongini o'stirishimiz, tashqi dunyodagi voqealarga nisbatan falsafiy tafakkuri va mafkuraviy immunitetini rivojlantirish darkor. Bu jihatdan, yoshlarning har jabhada bo'lgani kabi, mulkdorlik va tadbirkorlik sohasida ham, faol, ijodkor va izlanuvchan bo'lishi, ertangi kelajak uchun bugundan mustahkam poydevor qo'yish zarurligini davrning o'zi taqozo etmoqda. Navqiron avlod vakillarini Vatanga sadoqat, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, bandligini ta'minlash, huquq va manfaatlarini himoya qilishdek ustuvor vazifalarni amalga oshirish, yoshlarning ta'lim, ziyolilik darajasi, intellektual salohiyati, odob-axloqi, zukkoligi, harakatchanligi va shijoati, o'zgarishlarga tayyorligi jamiyatning umumiy taraqqiyot darajasini belgilaydi. Ushbu jarayonda yosh mulkdorlar va tadbirkorlar avlodining voqelikka falsafiy qarashlari va mafkuraviy immuniteti vujudga keladi va va bu ularning qalbida bu boradagi kreativ tamoyillar va innovatsion g'oyalar shakllanishiga xizmat qiladi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot bosqichida mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillarini takomillashtirish mexanizmlari jamiyatning ma'naviy, iqtisodiy va huquqiy sohalaridagi yangilanishlar bilan uzviy

---

<sup>28</sup> Boltaboev M.A. va boshqalar. Kichik biznes va tadbirkorlik. – T.: Adib nashriyoti, 2010. -B. 65.

<sup>29</sup> Boltaboev M.A. va boshqalar. Kichik biznes va tadbirkorlik. – T.: Adib nashriyoti, 2010. -B. 68.

bog'liq tarzda olib borilmoqda. Mulkdorlik insonning mehnatga bo'lgan mas'uliyati, halollik, vijdon, fidoyilik, bunyodkorlik singari qadriyatlar bilan bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan, mulkdorlik va tadbirkorlikni rivojlantirishning ma'naviy mexanizmlari – insonni “iste'molchi emas, yaratuvchi subyekt” sifatida shakllantirish, uning axloqiy dunyoqarashini mustahkamlash hamda milliy g'urur va ijtimoiy burch hissini yuksaltirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish – mulkdorlik va tadbirkorlikni kengaytirishning eng samarali vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Kichik biznes nafaqat iqtisodiy o'sish manbai, balki ijtimoiy barqarorlik va o'rta sinfning shakllanishida muhim omilga aylanmoqda. Bu holat “faol fuqarolik pozitsiyasi”, “ijtimoiy hamjihatlik” va “adolatli mehnat taqsimoti” tamoyillarini hayotga tatbiq etish imkonini beradi.

Yosh avlodni iqtisodiy tafakkur, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash orqali kelajak mulkdorlar sinfini shakllantirish jarayonida ta'lim tizimi, yoshlar siyosati, mahalla va fuqarolik institutlarining faol ishtiroki zarur. Bu yo'lda har birimiz o'zimizning faol fuqarolik pozitsiyamiz orqali davlatimizning porloq istiqboli uchun aniq marralarni egallashga intiladigan yangi islohotchilar avlodining farovon kelajagini ta'minlashga, ularning is'tedodlarini milliy g'oya ruhida kamol toptirishga intilishimiz lozimligi bugungi davr talabidir.

## XULOSA

Mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillari faqat iqtisodiy faoliyat yoki mulk egaligining huquqiy ko'rinishi emas, balki insonning yaratuvchan tabiati, mas'uliyat hissi va erkin fikrlash madaniyatini ifoda etuvchi jarayonlardir. Yangi O'zbekistonda iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarining uyg'un rivojini ta'minlovchi tamoyillar, ayniqsa, mulkdorlik va tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini o'rganish orqali inson kapitalining yangi paradigmasi shakllanadi. Bu paradigma milliy manfaatlarimizga mos holda, jamiyatda halollik, barqarorlik, innovatsion tafakkur va ijtimoiy adolatga tayanadigan iqtisodiy faol subyektning tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois Yangi O'zbekiston taraqqiyotida mulkdorlik va tadbirkorlik tamoyillarining ahamiyatini asoslab berishga qaratilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

